



RAQAMLI BANK XIZMATLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI

Xayrullayev Javohir Sheraliyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

E-mail: xayrullayevjavohir91@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi kunda raqamli bank tizimi ko'plab mamlakatlarda jadal rivojlanmoqda. Onlayn banking xizmatlarining joriy etilishi iqtisodiyotda pul oqimlarini nazorat qilish hamda moliyaviy operatsiyalar shaffofligini oshirish imkonini bermoqda. Raqamli bank tizimlari yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etib, moliyaviy intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayonlar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va bank tizimi samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: raqamli bank, onlayn banking, moliyaviy shaffoflik, yashirin iqtisodiyot, bank tizimi.

Bugungi globallasuv sharoitida raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni tobora ortib bormoqda. Iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida raqamli texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, raqamli bank tizimi iqtisodiyotning turli tarmoqlarini yagona moliyaviy muhitga birlashtiruvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki hozirgi kunda turli sohalarda amalga oshirilayotgan to'lov va transfer operatsiyalari asosan bank tizimi orqali bajariladi.

Raqamli bank xizmatlarining joriy etilishi sanoat, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va boshqa yirik tarmoqlarda mavjud muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, bank filiallarining chekka hududlarda yetarli darajada joylashmaganligi muammosi elektron va masofaviy bank xizmatlari orqali samarali hal etilmoqda. Natijada, mamlakatning chekka hududlarida yashovchi aholi ham tezkor va qulay bank xizmatlaridan qo'shimcha xarajatlarsiz foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Shuningdek, xavfsizlik va shaffoflik masalalari raqamli bank tizimining muhim afzalliklaridan biri hisoblanadi. An'anaviy bank tizimlarida uchraydigan to'lov xavfsizligi bilan bog'liq muammolar raqamli bank xizmatlarida sezilarli darajada kamayadi. Raqamli bank tizimlarida amalga oshirilgan tranzaksiyalarni real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati mavjud bo'lib, bu pul mablag'larining harakati ustidan samarali nazoratni ta'minlaydi. Mazkur holat iqtisodiyotdagi yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishga ham xizmat qiladi.

Boshqa tomondan, raqamli bank tizimi iqtisodiyotda xalqaro amaliyotlar uchun samarali yechim hisoblanadi. Hozirgi kunda raqamli to'lov tizimlari har bir mamlakat bilan bog'langan. Ya'ni, valyuta ayirboshlash global bozordagi real narxlar asosida qisqa muddatda amalga oshiriladi. Bu o'z navbatida noqonuniy valyutaning kirib

kelishi hamda chiqib ketishining oldini oladi. Bu holat milliy valyuta qadrini oshirish hamda qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilishni yanada soddalashtiradi. Moliyaviy bozorlarda real vaqt rejimidagi savdo hajmining ortishi o'z navbatida YAIMdagi ulushni oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, elektron bank tizimi kredit berish hamda to'lovlarni amalga oshirish bilan bog'liq muammolarga yechim beradi. Hozirgi kunda har bir bank tizimida ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatining mavjudligi kredit bilan bog'liq bo'lgan risklarni kamaytirishi mumkin. Ma'lumotlarni tahlil qilish iste'molchilarning barcha bank amaliyotlari tarixini tekshirish imkonini beradi. Bu o'z navbatida iste'molchilar hamda bank o'rtasidagi ochiqlikni ta'minlaydi.

Umumiy qilib oladigan bolsak, raqamli bank tizimlari iqtisodiyotdagi pul aylanishi bilan bog'liq barcha muommolarni yechimini boshlang'ich fazasi deb qarash mumkin. Chunki big data ma'lumotlarini tahlil qilish risklarni kamaytirish yoki unga yechim topishga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga boshqa tarmoqlar rivoji uchun ham xissa qo'shadi.

Xulosa

Raqamli bank xizmatlari iqtisodiyotning asosi hisoblanadi. Yuqorida yetarlicha omillar hamda ta'sirlar keltirib o'tilgan. Elektron bank tizimi nafaqat tranzaksiya xarajatlarini hamda vaqt sarfini kamaytiradi. Bundan tashqari iqtisodiyotda pul bilan mavjud muommolar ya'ni yashirin iqtisodiyot darajasini aniqlashda muhim nuqta hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF–6079-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

Bank tizimini raqamlashtirish va to'lov tizimlarini rivojlantirishga oid rasmiy ma'lumotlar.

Elektron resurs: <https://cbu.uz>

3. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi.

Raqamli iqtisodiyot va moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha rasmiy hujjatlar.

Elektron resurs: <https://digital.gov.uz>